

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti**  
**Kuzatuv kengashining**  
**2024 yil 16 sentyabrdagi yig‘ilishining 4-son**  
**BAYONNOMASIDAN KO’CHIRMA**

**Qatnashdilar:**

**Kuzatuv kengashi raisi:** Ashurov Muxsin Xurramovich

**Kuzatuv kengashi kotibi:** Usmanova Dilafruz Qarshiyevna

**Kuzatuv kengashi a’zolari:** Djalolov Shavkat Amonovich, Saidmurodov Uktam, Boltayev Farrux Farxodovichni, Shukurlayev Dilshod Dalerovich, Musinov Baxtiyor Muxamedjanovich, Raximov Pulat Raximovich, Yusupov Nosir Fatixovich, Abdulloyev Kamol Talatovich, Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Soleyev Axmadjon Soleyevich, Ismayil Usmanovich Raxmanov.

**YIG‘ILISH KUN TARTIBI**

**1-masala.** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universitetining Universitetning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

**Ma’ruzachi: SamDU rektori Xalmuradov Rustam Ibragimovich**

Yangi tashkiliy tuzilma O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-60 -son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 13 yanvardagi PQ-82-son “Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash shuningdek, universitetning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga mavjud manbaalardan samarali va oqilona foydalanish orqali erishish nuqtai-nazaridan ishlab chiqilgan.

Yangi tashkiliy tuzilma universitetning filiallari, yangi tashkil etilgan institutlar, yangi markazlar va yangi tarkibiy bo‘linmalar aks ettirilgan. Shuningdek, samaradorligi past bo‘lgan mavjud boshqarma va tarkibiy bo‘linmalar yangi tashkiliy tuzilmada qisqartirilgan.

Taklif etilayotgan yangi tashkiliy tuzilmaning amalga kiritilishi universitetning rivojlanish konsepsiyasidan kelib chiqib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish va vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

Universitet rektori R.I.Xalmuradovning ma’ruzasi Kuzatuv kengashi yig‘ilishida atroflicha muhokama qilinib,

**QAROR QILINDI:**

1. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining yangi tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Yangi tashkiliy tuzilmaning tasdiqlanishi munosabati bilan mavjud shtat birliklariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin. Bunda samarasiz shtat birliklarining qisqartirilishiga alohida e’tibor qaratilsin.

**Kengash raisi**



**Kengash kotibi**

**M.X.Ashurov**

**D.Q.Usmanova**